



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 696 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalarini investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” aining asisii faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari	250
Kaxarova Nilufar Yerkinjonovna	
Mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.....	256
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
Sog‘liqni saqlash tashkilotarida xarajatlar samaradorligini ta‘minlash masalalari	260
Raximova Maftuna Axmadjon qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foydani taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan soliq solish masalalari	264
Suyunov Otabek Shuxrat o‘g‘li	
O‘zbekiston qonunchiligida raqamli transformatsiya jarayonida elektron to‘lov kartalarini soxtalashtirishni jinoyatlashtirish	276
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
Mamlakatimizda intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirish masalalari.....	281
Miyassarov Davron Abdurashid o‘g‘li	
Validation of the dutch eating behaviour questionnaire (DEBQ) in a sample of uzbek women.....	285
Khursana Usmanova, Dr Muhammad Bilal, Dilafuz Qo‘chqorova	
Iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini o‘ziga xos jihatlari	295
Nabiyev Bexzod Shavkatovich, Bayboboeva Firuza Nabijonovna	
Davlat qarz siyosatini optimallashtirishda islomiy moliya instrumentlarining qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘nalishlari	299
Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	
Роль институциональных структур фондового рынка в обеспечении финансовой стабильности.....	305
Камилова Севара Анваровна	
The Impact of Digitalization on the Management System in the Entrepreneurial Environment of Uzbekistan.....	309
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
China’s Investment Strategy in Uzbekistan: Sectoral Trends and Strategic Implications (2013–2024).....	313
Maftuna Nuriddinova	
Qo‘shilgan qiymat solig‘i tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati	319
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Raqamli boshqaruvning afzalliklari va uni rivojlantirish istiqbollari	324
Xolbayeva Marg‘uba Qazoqboyevna	
Korporativ boshqaruvning nazariy asoslari: O‘zbekistonda qo‘llanish imkoniyatlari.....	328
Jumayeva Guzal Sherxon qizi	
Audit organizations in Uzbekistan	332
Razzaqov Jasur Xamraboevich, Yaqubov Matrasul Mavlonberdiyevich, Sabirova Nodira Komil qizi	
Xorijiy investitsiyalarning turlari va xususiyatlari	337
Gofurov Doston Boxromovich	
Mahalliy budjet mablag‘larining samaradorligini oshirishda auditning o‘rni.....	341
Primova Shaxnoza Komiljonovna	
Модели управления государственными финансами в зарубежных странах.....	345
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
O‘zbekistonning sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishi: yashil o‘sish indikatorlari tahlili	352
Hakimov Anvarjon Abdulloyevich	
Innovation management in the education system: practical challenges, international experience, and effective strategies based on the example of Uzbekistan.....	356
Imomov Inomiddin Abdulxamidovich, Egamberdiyev Farxod Botirovich	
Трансформация энергетического комплекса Узбекистана: текущее состояние и перспективы развития	363
Хмель Е.В., Мирджалилова Д.Ш., Дерюгина Е.А., Лозовская Н.А.	



Improving the efficiency of personnel management and optimizing labor costs in Sam Glass LLC.....	368
Musayeva Shoira Azimovna, Agzamov Avazkhon Talgatovich	
Interactive design and museum management: enhancing guided tours through IOT and virtual solutions.....	374
Ibrokhimova Aziza Abbasovna	
Hududlar investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	379
Imomova Kamola Novfal qizi	
"Innovatsion usulda baliq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari (Sirdaryo tumani misolida)"	385
Bo'ltakov Sardor Oqbo'ta o'g'li	
Bank filial tarmoqlari samaradorligini baholashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekiston banklari amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	392
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Zamonaviy iqtisodiyotda davlat xaridlarinin elektron savdolarining o'rni	398
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Реализация концепции развития рынка зеленой экономики в сфере экономической безопасности Республики Узбекистан.....	401
Юнусова Римма Рахманбердиевна	
Tijorat banklaridan "foyda" solig'ini undirishning bugungi holati.....	408
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
O'zbekiston oziq-ovqat sanoatini iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari	415
Abasova Gulirano Rahmatullo qizi	
Xorijiy tajribalar asosida ekologik tadbirkorlikning innovatsion va investitsion yo'nalishlarini tashkil etish	419
Turg'unova Tursunoy Maratovna	
Sanoat korxonalari jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasini amalga oshirish xususiyatlari	424
Raxmonova Feruza Musakulovna	
Turizm sohasida investitsion faoliyat: nazariy asoslar va amaliy yo'nalishlar.....	428
Ergashev Durdonaxon Aziz qizi	
Qashqadaryo viloyatida barqaror turizmning rivojlanish tendensiyalari va mavjud muammolar tahlili.....	432
Suyunova Dilnoza Mexridin qizi	
Iqtisodiy rivojlanish jarayonida investitsion resurslarning mutanosib taqsimlanishi: samaradorlik va ustuvor yo'nalishlar.....	436
Otaboyev Feruzbek Oybek o'g'li	
Xususiyy banklar faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning moliya bozoriga ta'siri	441
Abduqahhorov Asilbek Ahror o'g'li	
Mehnat resurslari tushunchasi, tarkibi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	447
Kobilova Zebo Bobokulovna	
Xorijiy davlatlar tajribasida moliyaviy siyosatning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli.....	453
Jabborova Dilafruz	
The impact of exchange rate policy on the financial-monetary system and economic growth.....	459
Raxmanova Laylo Baxodirovna	
Современные вызовы и модельные подходы к обеспечению конкурентоспособности банковской системы Узбекистана.....	464
Юлдашева С.Ш.	
Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish yo'llari	470
Ishimova Mohinur Absalomovna	
Innovative pathways for advancing sustainable tourism in Uzbekistan.....	477
Feruz Karimov	



Tijorat banklarida biznes subyektlari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari.....	482
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekistonda sanoat zonalarining rivojlanish bosqichlari va huquqiy-me'yoriy asoslari	488
Vafoyev Akmal Ikromovich	
Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishda Germaniya tajribasi	493
Pardayeva Maftuna Ulug'bek qizi	
Korxonalar moliyaviy faoliyati bo'yicha auditorlik risklarini xalqaro standartlar asosida baholash	497
Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abduxalil-zoda Ra'no Muzaffar qizi	
Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va ularni pasaytirish usullari	501
Sodiqov Mirahror Abbos o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalliy budjetlarning ahamiyati.....	509
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
The role of small business enterprises in enhancing the well-being of the population in Uzbekistan	513
Djalilova Shaxlo Ismoiljon kizi	
O'zbekistonda IPOlarni tashkil etish jarayonlari tahlili	518
Alikulov Azamat Tuygunovich	
Kichik sanoat zonalarini faoliyatining iqtisodiy-statistik tahlili (Surxondaryo viloyati misolida).....	522
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Hududlarning innovatsion turistik salohiyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	528
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Integrating circular economy principles in marketing and operations of grape export companies for green transition.....	534
Usmonova Diyora Mahmud kizi	
Foreign experiences of improving the quality of services in the field of tourism.....	541
Raxmonov Siyovush Turob ugli	
Z avlodining iste'dodli vakillari uchun raqobat: davlat boshqaruvi sektorining maqsadga yo'naltirilgan raqamli avlodni jalb etish strategiyalari.....	546
Nosirova Shaxzoda Bohodir qizi	
O'zbekiston Respublikasida uglerod solig'ini joriy etish orqali soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va yashil iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish imkoniyatlari: ekologik, iqtisodiy va institutsional yondashuv	560
Jo'rayev Ahmad Saitnazar o'g'li	
Tijorat banklari reytingiga ta'sir qiluvchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili.....	566
Karabayev Nodir Abduhamidovich	
Budjet tashkilotlarida tuziladigan moliyaviy hisobotlarning ahamiyati.....	578
Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	582
Хусейнов Рахим Али оглы	
Zamonaviy HR texnologiyalarining korxonalar samaradorligiga ta'siri: "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tajribasi.....	589
Xursanova Gulshan Ravshan qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion menejment strategiyalarining samaradorligini oshirish yo'llari	593
Pulatova Dildora Abdushukurovna	
Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llashning bugungi kunda o'rni va ahamiyati.....	600
Xolmirzayeva Gulruxsor Maxammetovna	
Интеграция информационно-коммуникационных технологий в зеленую экономику: цифровые технологии для устойчивого развития.....	604
Бозорова Ирина Жуманазаровна	



Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliyashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	608
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Цифровизация зеленой экономики: синергия технологий для устойчивого будущего	616
Мухаммадиева Кибриё Баходировна, Умарова Надира Рахмановна, Шарипова Зулфия Шокиржоновна, Эшпулатова Хусния Мирғолиб кизи	
O'zbekistonda to'qimachilik mahsulotlari bozori va rivojlanishi	621
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
Samarqand viloyatida tikuv-to'qimachilik sanoatining rivojlanish holati va ishlab chiqarish hajmining prognozi.....	629
Ikramova Taxmina Latifovna	
Повышение эффективности управления рисками в проектах государственно-частного партнерства в сфере услуг	639
Айтбаева Гульзада Куанышбаевна	
Surxondaryo viloyati iqtisodiy o'sish darajalarini ekonometrik modellashtirish	645
Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna	
Зарубежный опыт развития экономики ресурсно-сырьевых регионов: модели диверсификации и возможности адаптации.....	654
Севара Кахрамоновна Хакбердиева	
Xizmat ko'rsatish sohasida raqobatbardoshlikni oshirishning ahamiyati	658
Abduvoxidova Mohinur Akmalovna	
O'zbekiston sug'urta bozorida esg va yashil moliya instrumentlaridan foydalanish holati va imkoniyatlari.....	662
Zoyirov Laziz Subxonovich	
Xorazm viloyatida transport xizmatlari ko'rsatishning amaldagi holati tahlili va uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	668
Sharipova Bibijon Baxtiyorovna	
Ulgurji savdo qoidalari va chakana savdodan farqli tomonlari	678
Batirova Raxima Abdujabbarovna, Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
Xalqaro integratsiya jarayonlarida raqamli iqtisodiyotning o'rni.....	684
Zaripov Xurshid Zakir o'g'li	
Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining hozirgi holati	690
Himmatov Abdisamat Xalilovich	



MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARI VA XARAJATLARINING HOZIRGI HOLATI

Himmatov Abdisamat Xalilovich

O'zMU mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0003-2928-5070

Annotatsiya: Mahalliy budjetlar iqtisodiy taraqqiyot va aholi farovonligini ta'minlashda muhim moliyaviy instrument hisoblanadi. Ushbu maqolada mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarning tarkibi, ularning hududlar kesimidagi dinamikasi, budjetlararo transfertlarning o'rni hamda fiskal markazsizlashtirish bo'yicha takliflar yoritiladi.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet, daromadlar manbalari, mahalliy soliqlar, budjet xarajatlari, budjet taqchilligi, budjetlararo transfertlar, fiskal markazsizlashtirish.

Abstract: Local budgets are an important financial instrument in ensuring economic development and the well-being of the population. The article examines the structure of revenues and expenditures of local budgets, their dynamics across regions, the role of inter-budgetary transfers, and proposals for fiscal decentralization.

Key words: local budget, sources of revenues, local taxes, budget expenditures, budget deficit, inter-budgetary transfers, fiscal decentralization.

Аннотация: Местные бюджеты являются важным финансовым инструментом обеспечения экономического развития и благосостояния населения. В статье рассматриваются структура доходов и расходов местных бюджетов, их динамика по регионам, роль межбюджетных трансфертов, а также предложения по фискальной децентрализации.

Ключевые слова: местный бюджет, источники доходов, местные налоги, расходы бюджета, дефицит бюджета, межбюджетные трансферты, фискальная децентрализация.

KIRISH

Mahalliy budjetlar – O'zbekiston Respublikasining viloyat, tuman va shaharlarining naqd va naqdsiz pul resurslari majmuasidir. Ular hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish, aholini ijtimoiy himoyalash, infratuzilma qurish va kommunal xizmatlarni moliyalashtirish uchun xizmat qiladi. Mahalliy budjetlar faoliyati davlat budjet tizimining muhim bo'g'ini hisoblanadi, chunki ular orqali hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun pul fondlari shakllantiriladi, bu fondlar iqtisodiyotning turli sohalari o'rtasida oqilona taqsimlanadi va mahalliy hokimiyat organlari hududlarining iqtisodiy hamda ijtimoiy rejalarining amalga oshirilishi nazorat qilinadi[1].

O'zbekistonda fiskal islohotlar va "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi mahalliy budjetlar samaradorligini oshirish hamda fiskal markazsizlashtirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, aholiga yaqin xizmatlar ko'rsatish va mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun mahalliy budjetlarning daromad bazasi mustahkam bo'lishi zarur. Ammo amaliyotda mahalliy soliqlar va yig'imlar ulushi 30 foizdan past bo'lib qolmoqda, bu esa mahalliy budjetlarning markaziy budjetga yuqori darajada qaramligini anglatadi. 2024-yilning 9 oyida mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farq 19,9 trln so'mga yetdi, bu esa hududlardagi budjet intizomini va mablag'larni maqsadli sarflashni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi[3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy budjetlarning daromadlari va xarajatlari masalasiga bag'ishlangan ilmiy va amaliy adabiyotlarda mahalliy soliqlar ulushini oshirish, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish va xarajatlarning manzilliligini ta'minlash masalalari asosiy o'rin tutadi.

G. B. Polyak mahalliy budjet barqarorligini ta'minlash uchun mahalliy soliqlar va yig'imlar daromadlarning 50–60 foizini tashkil etishi lozimligini ta'kidlaydi. Bugungi amaliyotda esa mahalliy soliqlar ulushi 30 foizga yetmaydi. Tadqiqotlarda mahalliy budjetlar faoliyatining asosiy vazifalari sifatida mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini moliyalashtirish, shakllantirilgan pul fondlarini maqsadli va oqilona taqsimlash hamda korxona va muassasalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish ko'rsatiladi[1].



Ayrim tadqiqotlarda hududlarda aholining o'sishi, shaharlashuv, infratuzilmaga investitsiyalar va ijtimoiy xizmatlar dasturlari mahalliy budjet xarajatlarning oshishiga olib kelgani ta'kidlanadi[2]. Shu bilan birga, mahalliy budjetlarning moliyaviy imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan fiskal markazsizlashtirish siyosati budjet ijrosida manfaatdorlikni kuchaytirishi va hududlarda yangi daromad manbalarini izlab topishga rag'batlantirishi qayd etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarning hozirgi holatini baholash uchun quyidagi usullar qo'llanildi.

Ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirish. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va "Fuqarolar uchun budjet" axborot nashrining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlarining daromadlari hamda xarajatlari prognoz ma'lumotlari jamlandi[2].


Tasviriy statistika. Mahalliy budjetlar bo'yicha daromadlar, xarajatlar va budjetlararo transfertlar hududlar kesimida jadval hamda diagrammalar orqali tahlil qilindi. Daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq (taqchillik) hisoblab chiqildi.

Qiyosiy tahlil. 2022-yilning prognoz ma'lumotlari bilan 2024-yilning 9 oyi natijalari solishtirilib, mahalliy budjetlar dinamikasi va hududlar bo'yicha farqlar tahlil qilindi.

Holatni baholash. Aniqlangan muammolardan kelib chiqib, mahalliy budjetlarni moliyaviy mustahkamlash hamda xarajatlar samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjeti Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlaridan tarkib topadi. Daromadlar nuqtai nazaridan mahalliy budjetlar bir-biridan farq qiladi. Bu farq hududlarning iqtisodiy imkoniyatlari orasidagi tafovutlar bilan izohlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlarining 2019–2023-yillardagi daromadlari bo'yicha prognozlari va ijrolari keltirilgan (1-rasm).




1-rasm. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahalliy budjet daromadlari, ming so'mda[10]

2019-yilda mahalliy budjet daromadlari prognozi 113 foizga, ya'ni 13 foiz oshirib bajarilgani kuzatiladi. 2020-yilda esa mahalliy budjet daromadlari prognozi 92 foizga, ya'ni prognoz ko'rsatkichiga nisbatan 8 foiz kam bajarildi. So'nggi yillarda mahalliy budjet daromadlari prognozi 100 foiz atrofida bajarilayotganini ko'rish mumkin.

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahalliy budjet daromadlari bo'yicha Navoiy viloyati va Toshkent shahri eng yuqori o'rinlarni egallagan bo'lsa, Namangan va Samarqand viloyatlari oxirgi o'rinlarda qayd etilgan. Deyarli barcha hududlarda 2020-yilda 2019-yilga nisbatan mahalliy budjet daromadlari kamaygani kuzatildi. Bunga sabab sifatida COVID-19 pandemiyasi davrida ko'plab ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatidagi uzilishlar, soliq imtiyozlari va soliq solish bazasining qisqarishi ta'kidlanadi.



Mahalliy budget daromadlarini statistik tahlil qilishda hududlarning potentsial imkoniyatlari va amaldagi daromad ijrosi orasidagi tafovutlarni aniqlash maqsadida mahalliy budget daromadlarining yalpi hududiy mahsulotga nisbatini foizlarda hisoblash amalga oshirildi (2-rasm).



2-rasm. Mahalliy budget daromadlarining Yalpi hududiy mahsulotga nisbati foizda[10]

2019–2023-yillar kesimida tahlil qilinganda mahalliy budget daromadlarining yalpi hududiy mahsulotga (YAHM) nisbatan foizi kamayib borayotganini ko'rish mumkin. Xususan, 2019-yilda hududlar kesimida mahalliy budget daromadlarining YAHMga nisbatan foizi o'rtacha 7,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 5,1 foizga tushgan. Buning asosiy sababi YAHM hajmining mahalliy budget daromadlariga nisbatan tezroq o'sishi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasining mahalliy budget xarajatlari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular asosan hududiy rivojlanishni ta'minlash, mahalliy darajadagi davlat xizmatlarini moliyalashtirish va aholi turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan.

Mahalliy budget xarajatlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy soha xarajatlari;
- uy-joy va kommunal xo'jalik xarajatlari;
- hududiy infratuzilmani rivojlantirish;
- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- aholi bandligini ta'minlash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- favqulodda vaziyatlar xarajatlari;
- davlat boshqaruvi va ma'muriy xarajatlar.

Mahalliy budget xarajatlari joylarda qabul qilinadigan yillik budget rejasi asosida belgilanadi. Ushbu jarayon mahalliy kengashlar tomonidan muhokama qilinib, tasdiqlanadi. Xarajatlarni boshqarishda mablag'larning samarali taqsimlanishi, xarajatlarning manzilliligi va shaffofligini ta'minlash, shuningdek, budget mablag'lari ustidan nazoratni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratiladi.

2019–2023-yillarda mahalliy budget xarajatlari prognozlar va ijrosi hududlar kesimida tahlil qilingan. 2019-yilda mahalliy budget xarajatlari ijrosi prognoz ko'rsatkichiga nisbatan 37 foizga oshgan. Shuningdek, 2020- va 2021-yillarda ham ijro prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan mos ravishda 37 foiz va 63 foizga oshgani kuzatiladi.

Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida mahalliy budget xarajatlarning YAHMga nisbati davlatning fiskal siyosati, markazlashuv darajasi hamda mahalliy hokimiyatlarning vakolatlariga bog'liq. Rivojlangan davlatlarda ushbu ko'rsatkich yuqoriroq bo'lib, bu holat mahalliy hokimiyatlarning infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi keng vakolatlar bilan izohlanadi.




Masalan, Shvetsiyada mahalliy xarajatlarning YAHMga nisbati 20–25 foizni tashkil etadi. Bu mamlakatda ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar mahalliy darajada ta'minlanib, ulkan xarajatlarni talab qiladi. Germaniyada ushbu ko'rsatkich 10–15 foizni tashkil etadi. Federal tizim sababli mahalliy hokimiyatlar infratuzilma va jamoat xizmatlari uchun javobgar hisoblanadi. Fransiya ham bu ko'rsatkich 10–15 foiz bo'lib, mahalliy hokimiyatlar ta'lim, transport va sog'liqni saqlash sohalarida sezilarli xarajatlarni amalga oshiradi. AQShda bu ko'rsatkich 10–12 foizni tashkil etib, shahar va shtat darajasida transport, ta'lim hamda jamoat xavfsizligi uchun katta mablag' sarflanadi. Yaponiyada esa mahalliy xarajatlarning YAHMga nisbati 12–15 foiz bo'lib, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida mahalliy hukumatlarning faol roli xarajatlarning yuqoriligiga sabab bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi farq[9]

Mamlakat turi	Mahalliy xarajatlar ulushi (YAHMga nisbatan)	Xususiyatlar
Rivojlangan davlatlar	10-25%	Mahalliy hukumatlarning vakolatlari keng, xarajatlar ijtimoiy xizmatlar va infratuzilmaga yo'naltirilgan.
Rivojlanayotgan davlatlar	4-10%	Moliyaviy vakolatlar cheklangan, ko'p xarajatlar markaziy hukumat tomonidan boshqariladi.

Rivojlanayotgan davlatlarda mahalliy budjet xarajatlarining YAHMga nisbati pastroq bo'lib, ular ko'pincha markaziy hukumatga qattiq bog'liq. Hindistonda mahalliy xarajatlarning YAHMga nisbati 5–7 foizni tashkil etadi. Mahalliy hokimiyatlar asosan infratuzilma va jamoat xizmatlarini boshqaradi, ammo cheklangan mablag'larga ega. Bu ko'rsatkich Braziliyada 8–10 foiz, Xitoyda 7–10 foiz, Janubiy Afrikada 5–8 foiz, O'zbekistonda esa 4–6 foiz atrofida shakllanadi. 2019–2023-yillar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining mahalliy budjeti hududlar kesimida tahlil qilinganda, mahalliy budjet xarajatlarining yalpi hududiy mahsulotga nisbati o'rtacha 9,6 foizni tashkil etgani kuzatildi. Shu bilan birga, Navoiy viloyati, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida mazkur ko'rsatkich o'rtachadan past darajada bo'lgani aniqlanadi (3-rasm).




3-rasm. Mahalliy budjet xarajatlarining Yalpi hududiy mahsulotga nisbati foizda[10]

Lekin bu ko'rsatkich hududning mahalliy budjet xarajatlarini to'liq aks ettira olmaydi, chunki xarajatlar miqdori bevosita aholi soniga bog'liq. Shu sababli 5-rasmda 2023-yilda hududlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahalliy budjet xarajatlari tahlil qilindi. Ma'lumotlarga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy viloyati, Sirdaryo viloyati va Toshkent shahrida ushbu ko'rsatkich o'rtacha 2 245,6 ming so'mdan yuqori bo'lgani kuzatildi.

Statistik tahlil orqali mahalliy budjet daromadlari va xarajatlari tuzilmasidagi o'zgarish dinamikasini kuzatish imkoniyati yaratiladi. O'zbekistonda so'nggi yillarda mahalliy budjetlarning ulushi ortib borayotgani



kuzatilmoqda. Bu jarayon iqtisodiy o'sish bilan bog'liq bo'lib, hududiy daromadlar hajmining oshishi hisobiga ta'minlanmoqda (4-rasm).



4-rasm. 2023-yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahalliy budget xarajatlari ming so'mda[10]

Mamlakatning viloyatlar va tumanlari bo'yicha daromad va xarajatlarni taqqoslash orqali mahalliy budjetlardagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish mumkin. Masalan, iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan viloyatlar moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lib, boshqa hududlarga nisbatan davlat subsidiya va dotatsiyalariga kamroq ehtiyoj sezadi.

O'zbekiston Respublikasining mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini hududlar kesimida o'rganish, ular orasidagi tafovutlarni tahlil qilish imkonini beradi. 4-rasm ma'lumotlariga ko'ra, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahalliy budjet daromadlari o'rtacha 1 468,48 ming so'mni, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahalliy budjet xarajatlari esa o'rtacha 2 245,6 ming so'mni tashkil etmoqda.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va xarajatlar o'rtasidagi tafovut eng katta hududlar sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon viloyati, Qashqadaryo viloyati va Surxandaryo viloyatlari ajralib chiqadi. Shu bilan birga, Navoiy viloyati, Toshkent viloyati va Toshkent shahri mahalliy budjetlarining so'nggi yillardagi ko'rsatkichlari daromad va xarajatlar bo'yicha muvozanatli bo'lgani kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjet xarajatlarining daromadlardan oshib ketgan qismini qoplash maqsadida yuqori turuvchi budjetdan doimiy transfertlar ajratib boriladi (2-jadval).

2-jadval. Mahalliy budjetga transfertlar, mlrd. so'mda[10]

	2019	2020	2021	2022	2023	Bazisga nisbatan o'zgarishi foizda
Mahalliy budjet	16974	19487,8	10442,7	14115,6	24280,9	143,0
o'sish surati %		115	54	135	172	172,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	946	798	1301,3	1518	2672,4	282,5
Andijon	1886	1602	876,6	1682,2	2805,5	148,8
Buxoro	698	1321	440	933,5	645,9	92,5
Jizzax	1294	1000	490	824,6	1284,4	99,3
Qashqadaryo viloyati	632	2134	1577,2	2151,3	3819	604,3



Navoiy	403	277	0	0	0	0,0
Namangan	1684	2014	1238,9	1704,8	1704,8	101,2
Samarqand	2584	1426	1102,7	1007,9	2196,3	85,0
Surxondaryo	1877	1641	1293,6	1986,9	3248,9	173,1
Sirdaryo	909	1659	534,2	673,2	1086,2	119,5
Toshkent	503	991	0	0	0	0,0
Farg'ona	1127	1455	910	1377,4	2181	193,5
Xorazm	1260	976	632,9	846,5	1441,4	114,4
Toshkent shahri	1175	2193	0	0	0	0,0
o'rtacha	1212,7	1391,9	742,7	1050,5	1649,0	-

O'zbekiston mahalliy budjetlari statistikasining tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda ularning ahamiyati katta. Shu bilan birga, ayrim hududlardagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun ularga ko'proq qo'llab-quvvatlash va soliqlarni adolatli taqsimlash siyosatini rivojlantirish lozim. Tadqiqot natijalari O'zbekiston hududlarining moliyaviy barqarorligini oshirish uchun yanada chuqurroq tahlil va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy budjetlar O'zbekistonda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda muhim moliyaviy baza hisoblanadi. Mahalliy budjetlar barqarorligini ta'minlash uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Mahalliy daromad bazasini kengaytirish. Mahalliy soliqlar va yig'imlar turlarini diversifikatsiya qilish, mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha soliq bazasini kengaytirish hamda yangi soliq tushumlari manbalarini joriy etish orqali mahalliy budjetlar daromadlarida mahalliy soliqlar ulushini oshirish.

Budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish. Transfertlar mexanizmlarini shaffof qilish va ularni natijadorlik ko'rsatkichlari asosida taqsimlash, transfertlardan mahalliy budjetlar manfaatdorligini va hisobdorligini oshirish maqsadida foydalanish.

Xarajatlarning manzilliligini ta'minlash. Mahalliy budjet xarajatlarini chuqur tahlil qilish, aholi va iqtisodiyot uchun ustuvor yo'nalishlarga resurslarni yo'naltirish, ijtimoiy dasturlar samaradorligini baholash va optimallashtirish.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash. Infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash va tadbirkorlikni rivojlantirishga investitsiyalar jalb etish orqali mahalliy soliq bazasini kengaytirish hamda hududlar oralig'idagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2022 yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlarining daromadlari, xarajatlari va budjetlararo transfertlarining prognoz ko'rsatkichlari – "Fuqarolar uchun budjet 2022" axborot nashri
2. Budjetnoma-2024-2026/ Toshkent-2023/ 31-bet
3. Maria N. Forecast of budget revenues from taxes in the context of economy digitalization. Koniagin 2020. IOP Conf. Ser.: Mater. Sci. Eng. 940 012040.
4. Busch, D., Strehl, W. (2019). Budget Preparation and Forecasting in the Federal Republic of Germany. In: Williams, D., Calabrese, T. (eds) Palgrave Macmillan, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-030-18195-6_4
5. Gashi B, Asllani G and Boqolli L 2018. The effect of tax structure in economic growth. International Journal of Economics and Business Admin 6 # 2 56-67
6. Musayev A and Aliyev K 2017. Modelling oil-sector dependency of tax revenues in a resource rich country: 65 # 3 1023-1029
7. Xaydarov N. X. Mahalliy budjetlar: muammo va innovatsion yechimlar //O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy elektron jurnali. – 2020.
8. Eshnazarov T.Sh. Budjet munosabatlarini takomillashtirish va uning istiqbollari // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). – 2021. – №. 9 (145).
9. Xalqaro Valyuta Fondi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi
10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi rasmiy sayti (<https://openbudget.uz/>)dan olingan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasidir.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>